

O'ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYODAGI TASHQI SIYOSATI

Sharopov Dilshod Ravshan o'g'li

Buxoro Davlat Universiteti

80d579oagm@il.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi tashqi siyosati bilan bog'liq diplomatik munosabatlar va undagi istiqbolli rejalar, yaqin kelajakda hal qilinishi kerak bo'lgan masalalar mazmun - mohiyati atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, Janubiy Osiyo, "Harakatlar strategiyasi", "Taraqqiyot strategiyasi", strategiya, sanksiya, koronavirus, GES, geosiyosat, global, "yaxshi qo'shnichilik", eksport, import, YeIH, YI, demarkasiya, integratsiya, agregat.

ВНЕШНЯЯ ПОЛИТИКА УЗБЕКИСТАНА В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Аннотация: В данной статье подробно анализируются дипломатические отношения, связанные с внешней политикой Узбекистана в Центральной Азии и ее перспективными планами, вопросы, которые предстоит решить в ближайшее время.

Ключевые слова: Центральная Азия, Шанхайская организация сотрудничества, Южная Азия, «Стратегия действий», «Стратегия развития», стратегия, санкции, коронавирус, ГЭС, geopolitika, глобальный, «добрый сосед», экспорт, импорт, ЕС, YI, разграничение, интеграция, совокупность.

FOREIGN POLICY OF UZBEKISTAN IN CENTRAL ASIA

Annotation: In this article, diplomatic relations related to Uzbekistan's foreign policy in Central Asia and its prospective plans, issues to be resolved in the near future are thoroughly analyzed.

Key words: Central Asia, Shanghai Cooperation Organization, South Asia, "Strategy of Actions", "Strategy of Development", strategy, sanctions, coronavirus, HPP, geopolitics, global, "good neighbor", export, import, EU, YI, demarcation, integration, aggregate.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Markaziy Osiyo o'zining tabiiy resurslari, strategik o'rni, iqtisodiy, transport kommunikatsiyasi va yana bir qator sohalardagi imkoniyatlari bois, global va mintaqadagi yirik davlatlarning e'tibor markazida bo'lib kelgan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo davlatlari, shuningdek, Afg'oniston bilan chegaradoshligi va strategik qulay geosiyosiy imkoniyatlarisababli muhim ahamiyatga ega bo'lib, mintaqadagi siyosiy, ijtimoiy - iqtisodiy jarayonlar, qolaversa, xavfsizlikni ta'minlash masalalarida ham alohida o'rinni tutadi. Mazkur sababga ko'ra, Markaziy Osiyo mintaqasi doim O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy e'tibor markazida bo'lib kelgan. 2017–2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osyonni barqaror rivojlangan, tinch va keng imkoniyatlar makoniga aylantirish orqali "yaxshi qo'shnichilik" muhitini yaratish uchun o'zining mintaqadagi siyosatiga alohida e'tibor qaratib kelmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ / ANALYSIS AND RESULTS)

"Taraqqiyot strategiyasi" markazi bo'lim boshlig'i Farrux Hakimov o'zining "Markaziy Osiyoda mintaqaviy rivojlanish dinamikasi va "5+1" ko'p tomonlama hamkorlik formati" nomli maqolasida 2019- yilda Xitoyning Uxan provinsiyasida

paydo bo‘lgan virus xalqaro hamjamiyat uchun miqyosi jihatdan hech bir urushdan kam bo‘lmagan xavf – xatarni olib kelganligini, pandemiya boshlanishi bilanoq, O‘zbekiston rahbariyati mintaqaviy hamkorlik tarafdori ekanligini yana bir bor namoyon etgani holda, Markaziy Osiyoda “COVID-19” pandemiyasiga qarshi birgalikda kurashishga chaqirganligini ta’kidlab o‘tgan. Markaziy Osiyo mamlakatlari koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashish borasidagi umumiy masalalardagi hamfikrliligi bilan o‘z mintaqaviy hamjihatligini namoyish etdi. O‘zbekiston tomonidan Qирг‘изистон va Tojikistonga, Qозог‘истондан esa Qирг‘изистонга yuborilgan insonparvarlik yordami mintaqaviy hamkorlik va uning afzalliklarini yaqqol ko‘rsatib berdi.

Markaziy Osiyoning qoq o‘rtasida joylashgan, eng yirik inson salohiyati hamda barcha mintaqa mamlakatlari bilan umumiy chegaraga ega yagona davlat – O‘zbekiston. 2016 yil oxirigacha davlat chegaralari minalashtirilgan, suv va gaz zaxiralaridan oqilona foydalanish bo‘yicha dahanaki tortishuvlar, o‘zaro chetlab o‘tish va tashqi siyosiy-iqtisodiy manfaatlarga qaram bo‘lmaslikka yo‘naltirilgan muxtor naqliyat hamda temir yo‘llar barpo etilishi natijasida mintaqada ishonchhsizlik kayfiyati keskinlashib ketgandi. Hatto qarindoshlar darajasidagi bordi-keldi tashriflari ham nihoyatda cheklangan edi. Oxirgi yillarda mintaqa mamlakatlari o‘rtasidagi aloqalarda katta yutuqlarga erishilgan bo‘lsa-da, yaqin istiqbolda hal qilinishi kerak bo‘lgan bir qancha masalalar mavjud.

2017 yil 17 sentyabrida BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev mintaqada mutlaqo yangi siyosiy muhit yaratishga erishilgani va bu tendensiyaning mustahkamlanishi Markaziy Osiyo davlatlari prezidentlari muntazam uchrashuvlar o‘tkazishi uchun imkoniyat yaratishi haqida nutq qilgan edi.

Undan bir oz avval, 2017 yil 7 fevralda tasdiqlangan 2017–2021 yillar uchun Harakatlar strategiyasining «chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar» deya tavsiflangan 5.2-

yo‘nalishida «O‘zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik muhitini shakllantirish» tamoyili belgilab qo‘yilgan edi. Keyinchlik mazkur tamoyil 2022 yil 28 fevralda PF-60 sonli Prezident Farmoni bilan tasdiqlangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida o‘z aksini topdi. Umuman olganda, tashqi siyosat davlat va jamiyatning muvaffaqiyatli ichki rivojlanishi, islohotlarni amalga oshirish, aholi turmush farovonligining oshishini ta’minlash, hayot sifatini ko‘tarish uchun qulay tashqi sharoitni yaratish hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, O‘zbekiston atrofida tinchlik, barqarorlik va xavfsizlik muhitini shakllantirish eng asosiy vazifalardan biridir. Aynan O‘zbekiston joylashgan mintaqadagi xavfsizlik barqaror rivojlanishning eng asosiy shartidir. Yuqoridagilardan kelib chiqib, Markaziy Osiyo davlatlari – bevosita qo‘shnilarimiz bilan do‘stona, yaqin qo‘shnichilik va o‘zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlash asosiy ustuvor tashqi siyosiy yo‘nalish sifatida belgilab qo‘yilgan.

Xo‘sh, so‘nggi yillarda O‘zbekiston tashqi siyosatining Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik yo‘nalishida qanday ishlar amalga oshirildi?

Birinchidan, prezident Shavkat Mirziyoyevning Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlarini o‘tkazish to‘g‘risidagi taklifi amalga oshdi. Ushbu tashabbus xalqaro miqyosda keng tan olindi va mintaqa davlatlarining barcha rahbarlari qo‘llab-quvvatladi. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining birinchi maslahatlashuv uchrashuvi 2018 yil 15 mart kuni Qozog‘iston poytaxti Ostona shahrida bo‘lib o‘tdi. Ikkinci uchrashuv 2019 yil 29 noyabr kuni Toshkent shahrida o‘tkazildi. Toshkent uchrashuvida keyingi yig‘ilishni Bishkekda o‘tkazishga kelishib olingan edi. Ammo koronavirus pandemiyasi sabab 2020 yilgi uchrashuv o‘tkazilmadi. Markaziy Osiyo davlatlari yetakchilarining navbatdagi maslahat uchrashuvi 2021 yil 6 avgust kuni Turkmanistonning «Avaza» milliy turizm zonasida o‘tkazildi. 4-maslahat uchrashuvi 2022 yil 21 iyul kuni Issiqko‘l bo‘yidagi Cho‘lponota kurort shahrida o‘tkazildi. Jiddiy xulosalar qilish vaqtি keldi. Uchrashuvda Tojikiston va Qirg‘iziston tomonlari “XXI asrda Markaziy Osiyo

davlatlarining taraqqiyoti to‘g‘risida”gi do‘stona qo‘sningchilik bitimiga imzo qo‘ymadi, sababi o‘sha payt ular o‘rtasida keskinlik bor edi. 2023 yil Markaziy Osiyo davlatlarining beshinchi maslahatlashuv uchrashuvni bo‘lishi kutilyapti. Jiddiy xulosalar qilish vaqtি keldi.

Ikkinchidan, O‘zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari o‘rtasida barqaror iqtisodiy va siyosiy aloqalar o‘rnatildi.

2022 yil yakuniga ko‘ra, O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan tashqi savdo hajmi 17,2 foizga o‘sib, 7,5 milliard AQSH dollariga yetdi. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi ma’lumotiga ko‘ra, bu mamlakat umumiyligi savdo hajmining 15 foiziga teng bo‘lgan. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlariga eksporti 3,1 mlrd dollarni (o‘sish 15,4 foiz), importi esa 4,4 mlrd dollarni (o‘sish 18,6 foiz) tashkil etdi.

O‘zbekiston-Turkmaniston munosabatlari. Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston prezidenti sifatidagi ilk xorijiy tashrifini 2017 yil 6-7 mart kunlari Turkmanistonga amalga oshirgan edi. Uchrashuvda transport sohasida zamonaviy infratuzilma yaratish bo‘yicha hamkorlik davom ettirilishi bo‘yicha kelishuvga erishilgandi. Bu hamkorlik Markaziy Osiyo, Yevropa va Yaqin Sharq transport tizimlarini birlashtirishi ko‘zda tutilgan. Turkmaniston prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov 2018 - yil 23 - aprel kuni davlat tashrifi bilan O‘zbekistonga keldi va o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish doir 17ta hujjat imzolandi. 2021 - yilning 29 - aprel kuni ikki davlat rahbarlari Ashxobod shahrida yana uchrashuv o‘tkazishdi. Shavkat Mirziyoyevning Turkmanistonga navbatdagi tashrifi 2022 - yil 21 - oktyabr kuni amalga oshirildi. Unda davlat rahbarlari qardosh xalqlar o‘rtasidagi ko‘p asrlik do‘stlik va yaxshi qo‘sningchilikka asoslangan ikki tomonlama munosabatlarni yanada mustahkamlash masalalarini muhokama qildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasiga huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazining Jamoatchilik bilan aloqalar xizmati ma’lumotlariga ko‘ra, kyeyingi yillardagi o‘zgarishlar sabab tovar ayirboshlash hajmi to‘rt barobardan ziyodga ko‘paydi va 2022 - yil yakunlariga ko‘ra 926,3 million dollarni (o‘sish 2,7

foiz) tashkil etib, eksport hajmi 194,8 million dollarni, import hajmi esa 731,5 million dollardan iborat bo'ldi.

O'zbekiston-Qozog'iston munosabatlari. Dastlab Shavkat Mirziyoyev 2017 - yilning 22-23 mart kunlari davlat tashrifi bilan Qozog'istonda bo'lgandi. Muzokaralar yakunida davlatlararo, hukumatlararo va idoralalararo 13 hujjat imzolandi. M-39 avtomobil yo'lida joylashgan va 2006 yilda yopib qo'yilgan «Oq oltin» va «Malik» avtomobil o'tkazish punktlari qayta ochildi.

Qozog'iston Respublikasining hozirgi prezidenti Qosim-Jo'mart To'qayev 2019 - yilning 14-15 aprel kunlari davlat tashrifi bilan O'zbekistonda bo'ldi. Uchrashuvda ikki tomonlama savdo aylanmasi hajmini yaqin kelajakda 5 mlrd dollarga yetkazishdan har ikkala tomon manfaatdor ekanligi ta'kidlandi. O'tgan davr mobaynida Sirdaryo va Jizzax viloyatlari hamda Qozog'istonning Turkiston viloyati chegaralari tutashgan uchastkalarda davlatlararo chegarani demarkasiyalash bo'yicha bir nechta muzokaralar o'tkazildi. 2022 - yilning yakunlari bo'yicha O'zbekistonning Qozog'iston bilan tashqi savdo aylanmasi 4,6 milliard dollarni (o'sish 17,9 foiz) tashkil etib, eksport hajmi 1,4 milliard dollarga, import hajmi esa 3,2 milliard dollarga yetdi.

O'zbekiston-Tojikiston munosabatlaridagi. ko'p yillar davomida go'yoki yechimi bo'limgan, murakkab va nozik hisoblangan chegara va suv-energetika sohasidagi masalalar ham o'z yechimini topdi. Bu o'zgarishlarning barchasi oddiy fuqarolar hayotida sezilmoqda. Ko'p yillar davomida birinchi marta ular o'z qarindoshlari va do'stlinikiga to'siqsiz, erkin tashrif buyurish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Hozir O'zbekiston-Tojikiston chegarasidan har kuni 20 mingga yaqin kishi o'tadi. 4-5 yil oldin esa bu ko'rsatkich bor-yo'g'i 3-3,5 mingni tashkil qilar edi.

2018 - yilda ikki tomonlama munosabatlar tarixida birinchi marta o'zaro davlat tashriflari bo'lib o'tdi. Umuman olganda, 2016 yil sentyabr oyidan boshlab O'zbekiston va Tojikiston rahbarlari turli sammitlar doirasida 20 martabaga yaqin uchrashishdi. 2022 yil iyun oyidagi Tojikiston prezidenti E.Raxmonning mamlakatimizga rasmiy tashrifi O'zbekiston-Tojikiston munosabatlarini ittifoqchilik

darajasiga ko‘tardi. Keyingi yillarda ikki tomonlama tovar ayrboshlash hajmi qariyb 40 barobarga oshgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Muzokaralar chog‘ida O‘zbekiston va Tojikiston yetakchilari mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik masalalari yuzasidan ham fikr almashdilar, xalqaro tashkilot va tuzilmalar doirasida konstruktiv muloqot va o‘zaro ko‘makni davom ettirish zarurligini qayd etdilar. 2022 - yil yakunlari bo‘yicha Tojikiston bilan tashqi savdo aylanma 674,4 million dollarni (o‘sish 11,4 foiz) tashkil etib, eksport hajmi 519,9 million dollarga, import hajmi esa 154,5 million dollarga yetdi.

O‘zbekiston-Qirg‘iziston munosabatlarida so‘nggi 10 - yil davomida ilk bor chegara masalarida ijobiy natijalarga erishildi. Qirg‘iziston prezidenti Sadir Japarov mamlakat yetakchisi sifatida ish boshlagach, uchinchi davlat tashrifini O‘zbekistonga amalga oshirdi. Tashrif doirasida ko‘p qirrali O‘zbekiston-Qirg‘iziston sherikligining deyarli barcha yo‘nalishlarini qamrab olgan 22ta hujjat imzolandi. Ikki davlat o‘rtasida eng nozik nuqtalardan biri bo‘lgan chegaradagi muammolar yaqin kelajakda hal qilinishi ta’kidlandi. Shuningdek, Shavkat Mirziyoyev Sadir Japarov taklifiga binoan mazkur yilning 26-27 yanvar kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi. Tomonlar oxirgi ikki yilda o‘zaro munosabatlarni mutlaqo yangi darajaga olib chiqishga erishgani ta’kidlandi. O‘zbekiston – Qirg‘iziston chegarasining delimitasiyasi yakuniga yetkazilgani esa tarixiy voqeа sifatida e’tirof etildi. Muzokaralarda ikki tomonlama siyosiy, savdo-iqtisodiy, investisiyaviy, transport-kommunikasiya, suv-energetika va hududlararo hamkorlikni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. O‘zbekiston rahbari keyingi yillarda o‘zaro savdo hajmi yetti barobarga ko‘payganini mamnuniyat bilan qayd etdi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Markaziy Osiyoning xavfsizlik va barqarorlik holatini ta’minlash, mavjud bo‘lgan tahdidlar oldini olish uchun samarali mexanizmlarni ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Bu kabi mexanizmlarni yaratishning mintaqasi davlatlarida fan-texnologiyalar rivojlanishining ustivor yo‘nalishini aniqlash bilan

hamohanglikda olib borilishi maqsadga muvofiq sanaladi. Bugungi kun nuqtai-nazari bilan qaralsa muammolarni hal qilish orqali hamkorlikdan ko'ra, hamkorlik orqali muammolarni bartaraf etish tamoyiliga amal qilishimiz ko'proq naf beradi. Chunki, hamkorlik yangi imkoniyatlар eshigini ochib, hamjihatlikda muammolar yechimini topishga xizmat qiladi.

Ulkan GESlar qurilishi muammosini hamkorlikda mavjud kichik GESlarni modernizatsiya qilib foydalanish, muqobil energiya beruvchi texnologiyalarni joriy qilish yoki GESlardan keladigan foydani qoplashi mumkin bo'lgan turizmni rivojlantirish orqali yechimiga erishish mumkin.

Markaziy Osiyoda barqarorlik va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda samarali va ko'p tomonlama mexanizmlar qatorida xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, xususan, SHXT, YIH, Y.I doirasidagi ilmiy-texnik hamkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday jarayonlar mintaqada geosiyosiy mavhumlik saqlanib qolishiga, davlatlarni ko'p tomonlama siyosat yuritishiga, pirovardida hamkorlik jarayonlarining samarali kechishiga salbiy ta'sir qiladi. Mintaqada yetakchi davlatlarning manfaatlari to'qnashuvi davom etar ekan, mintaqaviy yaxlitlik vujudga kelmaydi. Siyosatchilar mintqa yirik davlatlar manfaatlari to'qnashadigan hudud ekanligi, bu ko'plab muammoli jarayonlarga sabab bo'lishini ta'kidladilar. Bunday fikrlarga qo'shilgan holda, yana shuni ham qayd qilish lozimki, biz shunday imkoniyatdan unumli foydalanishimi, bir davlatning bosimini qaytarishda ikkinchi bir davlatning muvozanatidan, foydalanish imkon mavjud.

Mintaqa taraqqiyotida tashqi omillardan ko'ra ichki omillar, ya'ni mintaqada davlatlarining ichki imkoniyatlari va ulardan nechog'lik samarali foydalanish ko'proq ahamiyat kasb etadi. Mintaqa rivojida shu hududda joylashgan har bir davlatning ulushi bor. Jumladan, O'zbekistonning roli va geosiyosiy pozitsiyasi nihoyatda katta.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/
REFERENCES)**

1. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutqi. <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyeev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag‘i “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni: <https://lex.uz/docs/3107036>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
5. Rog‘un GESi: Tojikiston va O‘zbekiston o‘rtasidagi suv janjalini qanday bartaraf etish mumkin? <https://kun.uz/uz/news/2017/06/05/rogun-gesi-tozikiston-va-uzbekiston-urtasidagi-suv-zanzalini-kandaj-bartaraf-etis-mumkin>
6. Shavkat Mirziyoyev Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi «Global darvoza» tashabbusi haqida gapirdi <https://daryo.uz/k/2022/11/18/shavkat-mirziyoyev-yevropa-ittifoqi-va-markaziy-osiyo-ortasidagi-global-darvoza-tashabbusi-haqida-gapirdi/>
- 7.“ Taraqqiyot strategiyasi” markazi bo‘lim boshlig‘i Farrux Hakimovning “Markaziy Osiyoda mintaqaviy rivojlanish dinamikasi va “ 5+1” ko‘p tomonlama hamkorlik formati” maqolasi. <https://strategy.uz/index.php?news=1446>
8. ISKANDAROVICH, R. O. (2021). BUKHARA ISLAMIC SCHOLARS VIII-XII CENTURIES. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 1(4), 42-48.
9. Sherzod, O. (2022). ILLUMINATION OF ISSUES OF THE HISTORY OF TURKESTAN IN THE WORKS OF THE HISTORIAN POLAT SOLIEV. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 2(6), 37-41.

10. Sherzod O'ktam o'g, N. (2023). TARIXCHI OLIM PO 'LAT SOLIYEV ILMY ME'ROSIDA TURKISTON TARIXIGA OID AYRIM MASALALAR. Innovations in Technology and Science Education, 2(7), 1283-1290.
11. Beshimov, M. (2022). ABDULVAHID MUNZIM-ENLIGHTENED POET, STATE AND PUBLIC FIGURE. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 2(6), 52-56.
12. BESHIMOV, M. (2022). Amir Said Alimkhan and Young Bukhara residents. International Journal of Intellectual Cultural Heritage, 2(2), 78-83.
13. Темиров, Ф., & Халикова, Н. (2021). БУХОРО АМИРЛИГИДА ТАШҚИ СИЁСАТ ВА ДИПЛОМАТИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ТАРИХИДАН. Scientific progress, 2(1), 1276-1282.
14. Mubinov M.A. [Diplomacy of the eastern states and central asian khanates in the struggle for independence](#).// CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY. VOLUME: 02 ISSUE: 05 | MAY 2021 (ISSN: 2660-6836). P.26-31.
15. Мубинов М.А. Дипломатия среднеазиатских ханств с государствами Востока в своей борьбе за независимость.// SCIENTIFIC PROGRESS. VOLUME 2 | ISSUE 1 | 2021 ISSN: 2181-1601. Page.778-783.
16. Мубинов М.А. Из истории внешних отношений Бухарского эмирата (XVIII-XIX века).// ЗНАНИЯ И НАУКА В СУРХАНДАРЬЕ №1/2020. Стр.36-39.
17. Muhammadali Mubinov. The role of the Bukhara emirate in domestic and foreign trade routes (based on the works of Russian travelers).// CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH. ISSN: 2181-2489 VOLUME 1 | ISSUE 1 | 2021. P.187-190.
18. Мубинов М.А. Внешнеполитическая деятельность Бухарского эмирата (XVIII-XIX вв.).// Ученый XXI века • 2021 • № 8 (79). Стр.88-90.

19. Mubinov Muhammadali. Foreign trade relations of the Bukhara emirate.// EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH. Volume 1 Issue 8, November 2021. –P.287-290.
20. Мубинов М.А. Культурные аспекты жизни и специфические качества ремесла Бухарского эмирата и русско-европейское влияние на эмират (в XIX-XX веках). International Journal of Intellectual and Cultural Heritage Volume: 2 Issue: 02 | 2022 ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314. –C.176-179.
21. Мубинов М.А. Дипломатические и посольские отношения среднеазиатских ханств с Османской империей.// ВЕСТНИК ХОРЕЗМСКОЙ АКАДЕМИИ МАЪМУНА –1/2021. Стр.116-119.
22. MUBINOV M.A. Bukhara emirate at the center of trade and economic relations (based on the works of travelers). // International Journal of Intellectual and Cultural Heritage Volume: 2 Issue: 06 | 2022 ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
23. Мубинов М.А. Специфические связи ремесла с культурной жизнью в Бухарском эмирате (XIX-XX века).// RESEARCH ON SOCIAL AND Volume: 01. Issue:01/Jan-2023